

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

“TASDIQLAYMAN”

**Biznes va tadbirkorlik oliy
maktabi direktori o‘rinbosari**

B. Xolbayev



« 9 » 09 2026 y.

“MOLIYAVIY SAVODXONLIK”
(mavzusidagi qisqa muddatli o‘quv kursining)

O‘QUV DASTURI

“Moliyaviy savodxonlik”- mavzusidagi qisqa muddatli o‘quv kursinig dasturi-9 bet

Tuzuvchilar:

- Babakulov T.I. – Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, Moliya va buxgalteriya hisobi kafedrası, i.f.d., professor
- Ishmuxamedov B.J. – Hududiy filiallar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari

Taqrizchilar:

- Rasulova D.V. – Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, Moliya va buxgalteriya hisobi kafedrası mudiri, i.f.d., professor
- Qodirov T.U. – Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, o‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i

O‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Ilmiy Kengashi tomonidan ma‘qullangan va o‘quv jarayonida qo‘llash uchun tavsiya etilgan.

(Oliy maktab Ilmiy Kengashining 2026-yil “09” aprel tasdiqlangan 2026/03-sonli bayonnomasi)

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotida samarali va demokratik bozor tamoyillarini to‘liq tarkib topishi fuqarolarning iqtisodiy bilim va malakalari, ko‘nikmalari darajasiga, ularning iqtisodiy madaniyatiga ham bog‘liq. Iqtisodiy madaniyatning yetarli darajada shakllanishi va samarali amal qilishi har bir shaxsning moliyaviy savodxonlik darajasini taqozo etadi. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida yaxlit o‘quv-uslubiy tizimni tashkil qilish mazkur yo‘nalishda kuzatilayotgan muammolarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan, “Moliyaviy savodxonlik” o‘quv kursining dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, “O‘zbekiston Respublikasini beshta ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha rivojlantirish Harakatlar strategiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyundagi “O‘zbekiston respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6017-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4862-sonli qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalardan kelib chiqib, davlat hokimiyati organlari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi tashkilotlari, jamoat tashkilotlarining qayta tayyorlash kurslari tinglovchilarida moliyaviy savodxonlik darajasini rivojlantirish tizimini tashkil etish bo‘yicha nazariy bilimi va amaliy ko‘nikmalarini kengaytirish maqsadida ishlab chiqilgan.

O‘quv dasturining maqsadi va vazifalari

O‘quv kursi: Moliyaviy savodxonlik asoslarini o‘rgatish bo‘lib, unda shaxsiy oilaviy byudjetni tuzish, taqsimlash va iqtisod qilishni hamda boshqarishni, daromad va xarajatlarni tahlil qilishni o‘rgatish. Biznes yuritishda moliyaviy erkinlik asoslarini aniqlash. Qarz va kreditdan oqilona foydalanishni, investitsiya qilish bo‘yicha boshlang‘ich bilim berish. Moliyaviy qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirish bilan belgilab beradi.

O‘quv kursi maqsadi – Moliyaviy savodxonlik qisqa muddatli o‘quv kursi aholi, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarni zamonaviy savdo, marketing va reklama faoliyatiga jalb qilish, ularni amaliyotga yo‘naltirilgan bilim va ko‘nikmalar bilan ta‘minlash orqali bandlikni ta‘minlash, daromad manbaini yaratish hamda kichik va o‘rta biznes sub‘ektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

O'quv kursi vazifasi – Ushbu dastur quyidagi toifadagi shaxslar uchun mo'ljallangan bo'lib, shaxsiy byudjetni mustaqil tuza olishi, daromad va xarajatlarni tahlil qila olishi, pul oqimini boshqara olishi, oddiy biznes moliya hisob-kitoblarini bajara olishi, qarz va kreditlarni baholay olishi, investitsiya qilishning asosiy tamoyillarini tushunishi, moliyaviy qarorlarni ongli ravishda qabul qila olishi ko'nikmalarini shakllantirish.

Tinglovchilar toifasi:

Tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan shaxslar. Yangi boshlagan tadbirkorlar. O'z daromadini oshirishni istagan fuqarolar. Ishsiz aholi va o'zini o'zi band qilmoqchi bo'lganlar. Kasb-hunar maktablari va texnikum tinglovchilari.

O'qitish muddati: 2 hafta

O'quv yuklamasi: 30 akademik soat.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari

Tinglovchilar tomonidan "Moliyaviy savodxonlik" o'quv kursini o'zlashtirish uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy uslublari, yangi axborot-pedagogik texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Kursning o'qitishda darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, taqdimotlar, multimedia mahsulotlari va elektron didaktik texnologiyalar va Internet materiallaridan keng foydalaniladi. Moslashtirilgan ilg'or pedagogik texnologiyalar ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladi.

Interaktiv ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish uslublari:

- interfaol ma'ruzalar (munozara tarzida);
- ishchi holatlarni tahlil qilish;
- ishchi va rolly uyinlar;
- keys-stadi;
- psixologik va boshqa treninglar;
- "aqliy hujum", "kichik guruhlarda ishlash" orqali turli vaziyatlarda muammolarni hal qilishni o'rganish;
- kompaniyalarga amaliy tashriflar.

O'quv kursini talab darajada o'qitishni tashkil qilish uchun zarur moddiy-texnik ta'minot:

1. Auditoriyada komp'yuter, ekran, proektorlarni mavjudligi va ulardan taqdimotlarda foydalanish.

2. Komp'yuter sinflari yoki o'quv zallarida yetarli komp'yuterlarning mavjud bo'lishi va ulardan darsliklarning, o'quv qo'llanmalarining elektron variantidan foydalanish imkoniyatining bo'lishi.

“Moliyaviy savodxonlik” o'quv kursining soatlar bo'yicha taqsimlanishi

№	Mavzular nomi	Umumiy soat	Auditoriya soatlari		
			Ma'ruza	Suhbat	Seinarlar va amaliy mashg'ulot
1.	Moliyaviy savodxonlik: mohiyati va ahamiyati	2	2		
2.	Xonadon xo'jaligi daromadlarini shakllantirish manbalari: ish haqi va boshqa daromadlar	4	2		2
3.	Kredit xizmatlaridan foydalanish xususiyatlari	4	2		2
4.	To'lovlar sohasidagi zamonaviy bank xizmatlari	4	2		2
5.	Sug'urta xizmatlari: turlari, foydalanish tartibi	4	2		2
6.	Pul va uning funksiyalari	4	2		2
7.	Kompaniyalarning buxgalteriya balansi	4	2		2
8.	Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot	4	2		2
	Jami	30	16		14

Izoh: dars mashg'ulotlari davomiyligi 5 kun. (kuniga 8 soatdan)

O'quv kursi mashg'ulotlarining mazmuni

Mavzuning maqsadi – Moliyaviy savodxonlik asoslarini o'rgatish. Shaxsiy byudjetni tuzish va boshqarish ko'nikmasini shakllantirish. Daromad va xarajatlarni tahlil qilishni o'rgatish. Biznes moliyasi asoslarini o'rgatish. Qarz va kreditdan oqilona foydalanishni tushuntirish. Investitsiya qilish bo'yicha boshlang'ich bilim berish. Moliyaviy qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish.

Mavzuni o'zlashtirish natijasida guruxda shakllangan tinglovchilarning kompetensiyalari (bilish, ega bo'lish, egalik qilish).

Modulni tugatgandan so'ng, tinglovchilar quyidagilarni bilishlari kerak:

- Shaxsiy byudjetni mustaqil tuza olishi;
- Daromad va xarajatlarni tahlil qila olishi;

- Pul oqimini boshqara olishi;
- Oddiy biznes moliya hisob-kitoblarini bajara olishi;
- Qarz va kreditlarni baholay olishi;
- Investitsiya qilishning asosiy tamoyillarini tushunishi;
- Moliyaviy qarorlarni ongli ravishda qabul qila olishi kerak;

Tinglovchi bilishi kerak:

- Moliyaviy savodxonlikning mazmuni va ahamiyati;
- Shaxsiy byudjetni tuzish va boshqarish usullari;
- Daromad va xarajat turlari;
- Aktiv va passiv tushunchalari;
- Biznesda daromad, xarajat va foyda tushunchalari;
- Qarz, kredit va foiz stavkasi asoslari;
- Investitsiya va risk tushunchalari;
- Moliyaviy qaror qabul qilish asoslari.

Tinglovchi kuyidagi malakaga ega bulishi kerak:

- Shaxsiy byudjetni mustaqil ravishda tuzish;
- Daromad va xarajatlarni tahlil qilish;
- Oddiy biznes moliyaviy hisob-kitoblarini amalga oshirish;
- Foydani hisoblash va baholash;
- Qarz olish yoki olmaslik bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilish;
- Moliyaviy xavflarni baholash;
- Oddiy investitsiya rejasini tuzish;
- Pulni samarali taqsimlash.

Mavzularning qisqacha mazmuni:

1-mavzu. Moliyaviy savodxonlik: mohiyati va ahamiyati

“Moliyaviy savodxonlik” tushunchasining iqtisodiy mohiyati. “Moliyaviy savodxonlik” fanining maqsadi va vazifalari. Aholida moliyaviy savodxonlik ko'nikmasini shakllantirish. Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish borasidagi xorij tajribasi va O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari. Moliyaviy mas'uliyatni oshirish yo'llari.

**2-mavzu. Xonadon xo'jaligi daromadlarini shakllantirish manbalari:
ish haqi va boshqa daromadlar**

Xonadon xo'jaligi mohiyati. Xonadon xo'jaligi va oila: umumiy jihatlari va farqi. Xonadon xo'jaligini jamiyatning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari bilan

bog'liqligi. O'zbekistonda xonadon xo'jaligi va oila daromadlarini shakllantirish xususiyatlari. Xonadon byudjeti. Xonadon byudjeti daromadlarini shakllanish manbalari: ish haqi, tadbirkorlik daromadi, mulkiy daromadlar, transfert to'lovlari, boshqa manbalardan olingan daromadlar tarkibi va o'zgarish dinamikasi. Rasmiy va norasmiy daromadlar.

3-mavzu. Tijorat banklarining kredit xizmatlaridan foydalanish xususiyatlari

Bank va bank xizmatlari, kredit tushunchalari mohiyati. Kredit xizmatlarining turlari. Mikroqarz va onlayn kreditlar. Kredit uchun buyurtmalarni rasmiylashtirish tartibi. Kredit ta'minoti turlari. Foizlarni o'rnaish va hisoblash tartibi. Kreditning to'liq qiymati. Kredit shartnomasi. Kreditlar bo'yicha dastlabki, joriy va keyingi monitoring. Kreditlarni so'ndirish tartibi.

4-mavzu. To'lovlar sohasidagi zamonaviy bank xizmatlari

Naqd va naqd pulsiz to'lovlar tushunchasi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning shakllari. Tijorat banklarining ichki to'lov tizimlari. Markaziy bankning banklararo to'lov tizimlari. Milliy va xalqaro plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblar tizimi. Masofaviy to'lov tizimlari. Mobil to'lov tizimlari. Xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari

5-mavzu. Sug'urta xizmatlari: turlari, foydalanish tartibi

Sug'urta tushunchasi. Sug'urta kompaniyalari. Sug'urta turlari. Inson hayoti bilan bog'liq holatlarni sug'urtalash xususiyatlari. Mulkiy javobgarlikni sug'urtalash. Aralash sug'urta xizmatlari. Sug'urta to'lovlarini hisoblash va to'lash tartibi. Sug'urta holati. Sug'urta holatining yuzaga kelishida tavon pulini olish tartibi.

Asosiy tushuncha va atamalar: sug'urta, inson hayotini sug'urtalash, mulkiy davobgarlikni sug'urtalash, sog'urta holati, tavon puli.

6-mavzu. Pul va uning funksiyalari

Pulning mohiyati. Pul mohiyatining namoyon bo'lish shakllari. Pulning funksiyalari: qiymat o'lchovi funksiyasi; muomala vositasi funksiyasi; to'lov vositasi funksiyasi; jamg'arish vositasi funksiyasi; jahon puli funksiyasi. Pulning qadrsizlanishi.

7-mavzu. Kompaniyalarning buxgalteriya balansi

Kompaniya buxgalteriya balansining formulasi. Kompaniyaning aktivlari: aylanmadan tashqari aktivlar; ylanmadpagi aktivlar. Aylanmadan tashqari aktivlar: asosiy vositalar; nomoddiy aktivlar; amortizatsiya summasi; uzoq muddatli investitsiyalar; o'rnatiladigan uskunalari; kapital quyilmalar; uzoq muddatli debitor

qarzdorlik; uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar. Aylanmadagi aktivlar: tovar-moddiy zaxiralar; kelgusi davr xarajatlari; kechiktirilgan xarajatlar; qisqa muddatli debitor qarzdorlik; pul mablag‘lari; qisqa muddatli investitsiyalar. Kompaniyaning o‘z mablag‘lari. Kompaniyaning majburiyatlari.

8-mavzu. Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot

Mahsulotlarni sotishdan olingan tushum. Yalpi daromad. Yalpi foyda. Sof foyda. Taqsimlanmagan foyda. Mahsulotlarning tannarxi. Ishlab chiqarish xarajatlari. Muomala xarajatlari. Davr xarajatlari. Kompaniyalar to‘laydigan soliqlar.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vaxabov A.V., Tashmatov Sh.A., Xaydarov N.X., Vaxabov A.V. Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'llanma // - Toshkent: Baktria Press, 2013. 288 bet.
2. Benninga, Sh. Основы финансов с примерами в Excel / Sh. Benninga. - M.: Vilyams I.D., 2016. - 960 c.
3. Blank, I.A. Основы финансового менеджмента. В 2 т. / I.A. Blank. - M.: Omega-L, 2019. - 128 c.
4. Bogdashevskiy, A. Основы финансово грамотности: краткий курс / Artyom Bogdashevskiy. – Moskva : Alpina publisher, 2019. – 304 s.
5. Malikov.T.S. Moliya. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2018. – 268 b.
6. Xikmatov U.S., Koichueva M.T. Основы финансово грамотности: учеб. пособие. – B.: KRSU, 2015. – 163 s.
7. Chumachenko V.V., Goryaev A.P. Основы финансово грамотности. М. «Провещение», 2016.
8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. www.ziyouz.com kutubxonasi
9. Measuring Financial Literacy: Core Questionnaire in Measuring Financial Literacy: Questionnaire and Guidance Notes for conducting an Internationally Comparable Survey of Financial literacy, Paris, OECD, 2011, 31 p..
10. Atkinson A. and F. Messy. Measuring Financial Literacy: Results of the OECD // International Network on Financial Education (INFE) Pilot Study, OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions. 2012.

Internet saytlari

1. <http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi davlat portali.
2. <http://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari.
3. <http://www.mikrokreditbank.uz> - «Mikrokreditbank» aksiyadorlik-tijorat banki
4. <http://www.worldbank.org> - Jaxon bankining rasmiy sayti.
5. <http://www.rgsbm.uz> - Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi